

**«MAKTABGACHA TA'LIM KLASTERLARINI
TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY
TENDENSIYALARI: KORIJ TAJRIBASI»**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

22.11.2023 yil

Kasimov Asror Abdulloevich. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH	59
Xayrullayeva Dilnoza Nurmat qizi. BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA ETNOPEDEGOGIKA NAMUNALARINING YORITILISHI	63
Nasimova Nasiba Qurbon qizi. MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNING SHAKLLANISHI VA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI	66
Jumayeva Habiba G'aforovna. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILİYATINI RIVOJLANTIRISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI	67
Ergasheva Nilufar Erkin qizi. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PSIXOLOG KASBIY FAOLIYATINING ILMIY -NAZARIY METODOLOGIK MUAMMOLARI	71
Jo'rayeva Zarina Muxtorovna. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI YOZUVGA O'RGATISHNING METODIK ASOSLARI	73

3 – SEKTOR: MAKTABGACHA TA'LIM KONSEPSIYASIDA XALQARO VA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISHDA KREATIV YONDASHUV

Nigmatova Mavjuda Maxmudovna, Qurbonova Dilnoza Sadriiddinovna, Sayfullayeva Mohinur Mustafoyevna. YEVROPA MAMLAKATLARIDA MAKTABGACHA TA'LIM VA UNING AHAMIYATI.....	77
Mirzayeva Dilfuza Shavkatovna. TALABALAR IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ART-PEDAGOGIKANING AHAMIYATI	80
Umedjon To'raqulovich Jumayev. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARINING KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODLARI.....	83
Rajabova Iroda Hamidovna, Nuriddinova Sevara, Bahriiddinova Gulnora. ATROF – OLAM BILAN TANISHTIRISH MASHG'ULOTLARIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA OILAGA NISBATAN MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH.....	85
Eshova Dilbar Shonazarovna. TASVIRIY FAOLIYAT- BADIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH ASOSI.....	87
Oygul To'raeva. MAKTABGACHA TALIMDA BOLALARNI TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	90
Barotova Dilnoza O'tkir qizi. MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHIDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILİYATLARNI SHAKLLANTIRISH.....	94
Ergasheva Gulzoda Baxtiyorovna, Yo'ldoshev Muhabbat Mahmanazarovna. MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILİYATLARINI SHAKLLANTIRISH	96
Fayzullayeva Nozima Nutfillo qizi. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA HUQUQIY TARBIYA BERISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	98
Sharipova Maxbuba Baxshilloevna, Hamroyeva Lobar Olimjonovna. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH, O'YIN FAOLIYATINI TASHKIL ETISH YO'LLARI.....	102
Komilova Dilnoza Akram qizi. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDOSHUV	105
Yunusova Dilfuza Norboyevna. MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOALARDA OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMALARINI SHAKLLANIRISHNING AHAMIYATI.....	107
Sharipova Maxbuba Baxshilloevna, Ahrorova Aziza Anvar qizi. MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILİYATLARI VA UNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	109
Musayeva Shoxsanam. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA ESTETIK TARBIYA BERISHDA MUSIQANING O'RNI.....	112
Камилова Гулмира Алимовна. МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КРЕАТИВ ЁНДАШУВ.....	114

mamlakatda bugungi kunda aholining bola huquqlari oid huquqiy madaniyatini rivojlantirish bo'yicha huquqiy asos va institutsional tizim yaratildi va u takomillashtirib borilmoqda. Ammo, qonunlarni ishlashi, ular Mexanizmlarining samaradorligi birinchi o'rinda, aholining huquqiy madaniyatining qay darajada ekanligiga bog'liqdir. Uni esa, bu borada ta'limsiz erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham, mamlakatda inson huquqlari sohasidagi ta'limni rivojlantirish bilan bir qatorda, uning aholisining katta qismini tashkil etuvchi bolalarning huquqlarini ham maxsus o'qitish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanmoqda. Mazkur yo'nalishda, bolalarning huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirishda, aholining bola huquqlariga oid huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida qator islohatlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxs va fuqaroning o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishiga asos bo'lgan omil, ya'ni rahbariy g'oyalar yig'indisi hisoblangan shaxs va fuqaro huquqiy maqomining quyidagi tamoyillari mustahkamlab qo'yilgan: 1) shaxs va fuqaroning huquq va erkinliklari sohasida xalqaro huquq normalarining ustunligi; 2) asosiy huquq va erkinliklarning ajralmasligi; 3) huquq va erkinliklarning bevosita amalga oshirilishi; 4) huquq va erkinliklarni majburan cheklashga yo'l qo'yilmasligi; 5) shaxs va fuqaro huquq va erkinliklarining davlat tomonidan kafolatlanganligi; 6) teng huquqlilik; 7) shaxsning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishi boshqalarning huquq va erkinliklariga putur yetkazmasligi shart ekanligi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan inson huquqlari shaxsning erkinlik va o'z taqdirini o'zi belgilash doirasini, uning avtonomiyasini o'rnatadi, inson huquqlari va erkinliklari sohasida umume'tirof etilgan xalqaro normalar va standartlar asosida ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni tartibga soladi hamda muvofiqlashtiradi, davlat insonning shaxsiy erkinlik doirasiga asossiz aralashishining oldini olgan, davlat tuzilmalarining mutlaq hukmronligiga va o'zboshimchaligiga to'siq qo'ygan holda faoliyatining chegarasini o'rnatadi, inson va davlatning o'zaro munosabatlari mezonlarini, davlatning o'z faoliyati uchun jamiyat va shaxs oldidagi mas'uliyatini belgilaydi. Har bir demokratik davlatning konstitutsiyaviy asosini inson huquq va erkinliklari tashkil qiladi. Shu ma'noda, mamlakatimiz Konstitutsiyasidan "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" bo'limi alohida o'rin egallagani bejiz emas. Shuningdek, yuqorida ta'kidlanamizdek, Konstitutsiyaning "Asosiy tamoyillar" bo'limida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligini qayd etuvchi asosiy g'oyalar mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, ular jamiyatning to'la huquqli, shu bilan bir qatorda muayyan zaif qatlami sifatida qo'shimcha huquq va imtiyozlarga ega bo'lgan bolalarga ham taalluqlidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

6. O'zbekiston Respublikasi "Oila kodeksi" Toshkent "Adolat", 1998 y
7. Munavvarova A.N. "Oila pedagogikasi" T., 1994 y.
8. Jumanazar Beknazar "Ona va bola tayanchi" Ibn Sino T. 2001 y
9. Xolmatova M. "Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi" T. O'zbekiston 2000 y
10. Xasanboyeva O. "Oilada ma'naviy axloqiy tarbiya" Toshkent 1998 y

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH, O'YIN FAOLIYATINI TASHKIL ETISH YO'LLARI

Sharipova Maxbuba Baxshilloevna

Buxoro davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Hamroyeva Lobar Olimjonovna

Buxoro viloyati, Buxoro tumani, 21-DMTT tarbiyachi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirilgan o'yin faoliyati shakllari, turlari va ularni tashkil etish usullari haqida mulohazalar yuritilgan. Keltirilgan*

ma'lumotlar maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi pedagoglari, metodistlarning ish faoliyati, tajribalarini o'rganish tufayli yoritildi.

Kalit so'zlar: *o'yin faoliyati shakllari, sahnalashtirish faoliyati, ijrochilik ijodiy faoliyat, faollashuv, tashabbuskorlik, emotsional rivojlanish.*

Аннотация: *В статье обсуждается важность постановки в дошкольном образовании, формы постановочной игровой деятельности и способы ее организации. Описания уточнены благодаря изучению опыта педагогов дошкольного образования, а также методистов.*

Ключевые слова: *формы игровой деятельности, постановочная деятельность, творческая активность, активизация, инициативность, эмоциональное развитие, перформанс.*

Abstract: *This article discusses the importance of staging in preschool education, the types of staged play activities and ways to organize them. The descriptions were clarified due to the study of the experience of teachers of preschool education, as well as methodologists.*

Keywords: *staging activities, forms of play activities, creative activity, activation, initiative, emotional development, performance.*

Yurtimizda kechayotgan ijtimoiy-ma'naviy islohotlar, fan-texnika va ishlab chiqarishning keskin rivojlanib borayotganligi - jamiyat talablariga javob bera oluvchi shaxsni tarbiyalash masalasi zamon talabi ekanligini ko'rsatmoqda.

Albatta, kelajakimiz poydevori bo'lgan, har jihatdan mas'uliyatli, ma'naviy yetuk, axloqan pok, jamiyat taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'sha oladigan yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimi uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uning kelgusidagi butun hayotini belgilab beradi. Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim-tizimini rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarorlari va farmonlari qabul qilindi.

Maktabgacha yosh-shaxsning dastlabki kamol topish davridir. Har bir bola shaxsining rivojlanishi, jumladan ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda uni adabiyotga, san'atga qiziqish va xalqimizning boy madaniy merosiga nisbatan hurmatni tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishda pedagog yetakchi rol o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyaning turli metodlarini qo'llash va «Ilk qadam» davlat o'quv dasturida belgilab berilganidek, o'quv tarbiyaviy faoliyatning o'zaro uyg'unligini ta'minlash, ularni o'yin tarzida tashkil etish lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish borasida sahnalashtirilgan o'yin faoliyati turlari amalgam oshiriladi. Sahnalashtirilgan o'yin faoliyati shakllari bir necha xil bo'lib u o'zining barcha turlari bilan bolalarni badiiy tarbiyalash, estetik rivojlantirishga ko'maklashadi. Ularni yangi taassurotlar bilan boyitadi, avval egallagan bilimlarini mustahkamlaydi, faollashtiradi, tashabbuskorligi, nutqi, badiiy didini rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatini o'tkazish vaqti belgilanmagan, ushbu faoliyatni pedagogik faoliyatdan kelib chiqib ya'ni integrativlik prinsipiga tayangan holda tashkil etish lozim.

Ta'limiy faoliyatlar. Ta'limiy faoliyat bir vaqtning o'zida ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarini bajarishi kerak. Uning mazmuni, shakli va metodi uch maqsadga erishishi uchun qaratilgan bo'lishi lozim: nutq va teatr-ijrochilik faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish; ijodkorlik muhitini yaratish; bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlantirish. Shuning uchun bunday mashg'ulotlarning mazmuni nafaqat qandaydir badiiy adabiyot asari yoki ertak matni bilan tanishuv, balki imo-ishora, mimika, harakat, kostyum, mizanstsena (spektaklning ayrim paytlarida dekoratsiya va aktyorlarning joylanishi), ya'ni vizual «belgilar» bilan tanishishdir.

Ko'ngilochar o'yinlar. Ko'ngilochar o'yinlar san'atning barcha shakllarini birlashtiradi. Ularning ko'p turlari mavjud bo'lib konsertlar, qo'g'irchoq teatri tomoshasi, bolalar, tarbiyachi-xodimlar va ota-onalar hamkorligida tayyorlangan sahna teatri yoki qo'g'irchoq teatri tomoshalarini o'z ichiga oladi.

Ko'ngilochar o'yinlarda ham kattalar, ham bolalar teng huquqli sherik sifatida harakat qilishadi. Umuman olganda, sahna tomoshasi yoki konsertda bola tabiiy ravishda kattalarning boy tajribasini o'zlashtiradi, xatti-harakatlarini qabul qiladi. Bundan tashqari, tarbiyachilar o'yin-kulgu va bayramlarda bolalar xarakterlarining o'ziga xos xususiyatlarini, orzu va istaklarini bilib oladilar. Bola shaxsini hurmat qilish, unga g'amxo'rlik qilish, kattalar va ular o'rtasida o'zaro munosabatlarda iliqlik muhiti yaratiladi.

Bayramlar. Tashkil etilgan bayramlar bolalarga quvonch bag'ishlab, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatini berishi lozim.

Bayram tadbirlari, avvalo bolalar uchun quvonch berishini tarbiyachi yodda saqlashi kerak. Bayramlar bolalarning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladigan taassurotlar manbayidir. Shu sababli bayramga tayyorgarlik jarayonida, eng avval, yaxshi toyyorlangan senariy, har bir bolaning bayram tadbirlaridagi ishtiroki, kayfiyati va san'at turlarining o'zaro uyg'unligiga e'tibor qaratish muhim. Bayram tadbirida bolalar o'zlarini quvnoq, xursand his qilishi va erkin bo'lishi kerak.

Professional teatr studiyalarining namoyishlari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida professional teatr studiyalarining (sirk, qo'girchoq teatri, sahna teatri) namoyishlarini tashkil etilishi.

To'garak ishi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning sahnaashtirilgan faoliyatini tashkil etishning ya'na bir shakli to'garak ishidir. U quyidagi masalalami hal etishda yordam beradi: bolalarning fantaziyasi, tasavvuri, barcha turdagi xotiralari, ijodkorliklarini (badiiy nutq, musiqali o'yin, raqs, sahna) rivojlantiradi.

Agarda maxsus teatrlar to'garagi tashkil etilgan bo'lsa, teatrlar to'garagi rahbari ishtirok etishni xohlagan bolalar bilan ish olib boradi. Bunda rahbar rejissor bo'ladi bola esa aktyor vazifasini bajaradi. Rahbar o'z oldiga maqsad qo'yadi, bola bilan ishlashda ssenariy, rejissoriik va sahnalashtirilgan ish bilan chegaralanmaslik, maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tadigan davri davomida bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishi lozim.

To'garak ishining asosiy mazmuni qo'girchoq teatri ustida ishlashni tashkil etadi, asar mazmunining tahlili, millami taqsimlash, syujetdagi harakatlarni o'zlashtirishga yoraam beradigan etyud o'yinli mashqlar. Butun spektaklning sahnalashtirish ishi esa maxsus mashg'ulotlaraa, haftada bir marotaba 30-40 daqiqa davomida kunning birinchi yoki ikkinchi yarimida o'tkaziladi. Mashg'ulotlami tashkil qilish jarayonida shunga e'tibor qaratish joizki, agar bolada bilim ko'nikma bo'lsa-yu, qiziqish, xohish bo'lmasa faollik bo'lmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan sahnalashtirish faoliyatini rivojlantirish masalalaridan kelib chiqib uning mazmuni aniqlanadi va tashkil etish shakllari belgilanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarari. PQ-4312-son 08.05.2019
2. "Maktabgacha ta'limda o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning samaradorligi: muammolar va yechimlar" Respublika ilmiy-amaliy anjumani . ADU. Andijon - 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdaagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari" to'g'risidagi 1059-son qarori
4. Mavlonova R., M.Satbayeva. "O'quv ustaxonasida amaliy mashg'ulot" T. Ilm-ziyo. 2011y.
4. Qayumova N. "Maktabgacha Pedagogika" T.: TDPU 2013 O'quv qo'llanma
5. Qodirov M., S.Qodirova. "Qo'girchoq teatri tarixi". "Talqin" T., 2006